

## **CHEZ TILLARINI O'QITISHDA YANGI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Rafiqova Nilufar Umidjon qizi**

*Farg'onan davlat universiteti, chet tillari fakulteti, filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishda innovatsion texnologiyalardan qanday foydalanish usullari, o'quvchilar xorijiy tillarni oson, puxta va samarali o'rganishlari uchun foydali va yangi innovatsion metodlar, dars jarayonlarida onlayn dasturlardan foydalanishning ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion texnologiyalar, ingliz va nemis tillari, interfaol usullar, e-book, kahoot, quiz testlar, mustaqil o'rganish texnologiyalari, samarali o'rganish.

**Kirish.** Barchamizga ma'lumki, XXI asr – texnologiyalar davri. Bugungi kunimizning har daqiqa va soniyalari kompyuter, telefon va gadgetlar bilan chambarchas bog'liq. Ertangi kunimizni ham ularsiz tasavvvur etib bo'lmaydi. Har qanday sohada axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib borilmoqda. Aholining ziyoli qatlami onlayn kutubxonalar tarmog'i hamda onlayn nashrlarga obuna bo'lib, o'z bilimlarini boyitib bormoqda. Har sohada bo'lgani singari ta'lim tizimida ham innovatsion texnologiyalardan foydalanish salmog'i ortib bormoqda. O'quvchi va talabalarni baholash tizimi ham raqamlashtirilganligi so'zimizning yaqqol dalili bo'la oladi. Ayniqsa, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan „Chet tillarini o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident Qarorining qabul qilinishi ushbu sohaga zamонавиу pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kirib kelishini tezlashtirdi. Bugungi kunda chet tiliga bo'lgan talab juda ham ortib ketishi natijasida ularni oson, qulay va tez o'rganish uchun bir qancha yangi dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Muhokama va natijalar:

Chet tilini o'rganayotgan har bir inson o'zida o'sha tilda erkin muloqot qilish, o'qib tushunish, tinglaganlarini analiz qilish, tushunarli va ravon gapishtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bugungi zamонавиу dunyoda buning bir qancha oson usullari mavjud. Masalan, eng ko'p tarqalgan usul – tinglash orqali tillarni tez va oson o'rganish. Biz bu maqsadga Booknomy, Tedbook singari bir qancha audio kitoblar va darsliklar orqali erishishimiz mumkin. Shuningdek bir qancha tillarni o'rganayotgan o'quvchilar tillardagi so'zlarning talaffuzi, yozilishi va ma'nosini bir-biriga solishtirish orqali ham juda yaxshi

natijalarga olishlari mumkin. Demak, chet tillarini o’rganishda texnologiyalardan foydalanishning qanday foydali jihatlari bor?

- chet tillarida namoyish etiladigan ko’rsatuvarlar, filmlarni katta ekranlarda subtitrlari bilan ko’rish;
- native speakerlar bilan onlayn yuzma-yuz suhbat qilish va fikr-mulohazalar olish;
- olgan bilimlarini qiziqarli onlayn testlar bilan mustahkamlash;
- har kuni yangi chiqadigan podcastlar o’qish va yangi so’zlar yod olish

Ro’yxatni ancha davom ettirish mumkin. Darhaqiqat, chet tillarini o’rganishdagi eng qiziqarli va hamma uchun manzur bo’ladigan usullardan biri bu – o’sha tilda chiqarilgan kinofilm, multfilmlarni subtitrlari bilan yoxud ularsiz tomosha qilish hisoblanadi. Katta yoshdagi til o’rganuvchilar o’zlarining yoshlari va qiziqishlariga mos keladigan filmlarni ko’rish orqali, yangi so’zlar, ularni talaffuz qilish, turli xil gap tuzish strukturalarini oson o’rganib oladilar. Ayniqsa, subtitrlari bilan tomosha qilinsa, uning foydasi yana ham kattaroq bo’ladi. Sababi insonda ko’z, qulqoq xotiralarini ham mavjud. Yosh bolalar esa multfilmlar ko’rish bilan kundalik hayotda ishlataladigan oson va oddiy so’zlar, raqamlarni o’rganishlari mumkin. Shu sababdan ham texnologiyalardan foydalanib tilni qiziqarli va samarali o’rganish oson.

Shuni ham aytib o’tish kerakki, bugungi kunda aksariyat til o’rganuvchilarning maqsadi o’rganilayotgan xorijiy tilda tekis, ravon va aniq so’zlash qobiliyatiga ega bo’lish. Buning uchun, albatta, ko’proq shug’ullanish va gapishtirish kerak. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish bizga native speakerlar bilan muloqot qilish imkoniyatini tuhfa etadi. Hello talk, Duolingo kabi dasturlardan foydalanish orqali o’z gapishtirish qobiliyatini sinovdan o’tkazishi va sherigidan fikr-mulohazalarini olishi mumkin. Agar talaba xorijiy tillar grammatikasini o’rganayotgan bo’lsa, olgan bilimlarini sinovdan o’tkazish uchun onlayn quiz testlar yordamga keladi. Bu yo’l bilan o’quvchilarni chet tillarini o’rganishga qiziqtirish oson.

Haqiqatan, til o’rganish va o’rgatishda zamonaviy texnologiyaning o’rni beqiyos. Sababi texnologik vositalardan har qanday turdagiligi ko’nikmalarni shakllantirishda foydalansa bo’ladi. Misol uchun, tinglab tushunishni rivojlantirish uchun, albatta, kompyuter, qulqochinlar, CD disklar, player kerak bo’ladi. Jarayonni bularsiz tasavvur qilish qiyin. Eng muhim jihat, zamonaviy texnologik vositalardan foydalangan holatda o’tilgan dars samaraliroq va qiziqarliroq bo’ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, bugungi kun uchun imkoniyatlar eshigini ochuvchi kalit – til o’rganish. Zamonaviy texnologiyalar va medialardan foydalanish orqali esa bu jarayonni tezlashtirish, osonlashtirish mumkin. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining samaradorligi ularning ta’lim jarayonida to’g’ri va unumli foydalanilganidadir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.12.2012 yildagi PQ-1875-sodan
- 2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.01.2022 yildagi 34-sodan
- 3.Chet tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning umumiy samaradorligini oshirish yo'llari. Xolto'rayeva H. 2023
- 4.Chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuv. Otaboyeva M. R
- 5.Ravshanovna, G. N. (2022). THE STUDY OF THE MEANING OF THE WORD TOLERANCE IN OTHER LANGUAGES. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 8-9).
- 6.Ravshanovna, G. N., & Ahmadjanovna, E. T. U. (2021). Methodological characteristics of formation of tolerance skill pupils in primary school. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1623-1628.
- 7.Ravshanovna, G. N. (2021). Methods of development tolerance skills pupils in primary school. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1221-1224.
- 8.Ravshanovna, G. N. (2022). TOLERANCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS PEDAGOGICAL MODEL OF SKILLS DEVELOPMENT. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 95-96.
- 9.Ravshanovna, G. N. (2020). The Main Directions Of Developing Tolerance Skills Of Primary School Pupils. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020.
- 10.Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIM JARAYONIDA TOLERANTLIKNI TARBIYALASH USULLARI VA VOSITALARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 975-980.
- 11.Ravshanovna, G. N. (2019). TRAINING THE PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO INNOVATION ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION SYSTEM. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
- 12.Ravshanovna, G. N., & Anvarovna, Y. D. (2022). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDAGI TURIZMDAGI ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 14-17).
- 13.Teacher, G. N. R. E. THE IMPORTANCE USAGE OF EXTENSIVE READING Gafurova NR (Republic of Uzbekistan) Email: Gafurova339@ scientifictext. ru. UIF-2022, 8.

14.Qizi, O. S. S., & Ravshanovna, G. N. (2022). The scope of neologisms in science fiction. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 1149-1151.

15.Гафурова, Н. Р. (2019). Use of modern technologies in the foreign language lessons in primary education. Молодой ученый, (15), 256-258.

16.Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA KO ‘P MADANIYATLI TA’LIMNING MOHIYATI, MAZMUNI VA BAG ‘RIKENGLIK SHAKLLARI. O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 967-971.

Internet manbalari:

1.<https://lex.uz>

2.<https://kursi24.uz>